



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№8
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 352 sahifa,
1-avgust, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirli

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori modeli: tizimli boshqaruv yondashuvi asosida shakllanishi.....	14
<i>Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Maraimova Muxtabar Pulatovna</i>	
O'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari.....	20
<i>Abduraximov Doniyor Abdusaid o'g'li</i>	
Ta'lim siyosati va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi: xalqaro tajriba va o'zbekistonda amaliyot taqqoslamasi.....	25
<i>Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning hozirgi holati va o'ziga xosligi	30
<i>Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi</i>	
Ta'lim sifatini oshirishda "Barkamol avlod" bolalar maktablarining zarurati va ahamiyati	33
<i>Eshmuminova Oybarchin Botirovna</i>	
Bolalarda nutq kamchiliklari: etiologiya, rivojlanish dinamikasi va erta aralashuv	39
<i>Isayeva Mushtariy Alisher qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlikka o'rgatish usullari	44
<i>Maydonova Saboxat Sadulloyevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalari qiziqishni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari.....	48
<i>Mingbayeva Barno Ubaydullayevna</i>	
Pedagogical Characteristics in Enhancing Speaking Skills of Esp Learners in English Language Classes Through Digital Technologies	52
<i>Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna</i>	
Nutq buzishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari	55
<i>Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi</i>	
"Biologik savodxonlik" tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida	59
<i>Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna</i>	
O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni	65
<i>Umarova Feruzabonu Bobir qizi</i>	
Gamifikatsiyalangan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining 11–12 yoshli o'quvchilarda emotsional barqarorlikka amaliy ta'siri.....	68
<i>Tojiyev Baxriddin Baxtiyorovich</i>	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari	72
<i>Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li</i>	
Media va axborot savodxonligi 21-asr pedagoglarning asosiy kompetensiyasi sifatida.....	76
<i>Boypolvonov Barot Djonqobulovich</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini takomillashtirishning lingvistik va lingvometodik talqini.....	81
<i>Ismoilova Zarnigor Raximjon qizi</i>	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari	86
<i>Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li</i>	
Pedagogik faoliyatda stress namoyon bo'lishiga ijtimoiy omillarning ta'siri	90
<i>Jumanova Ug'loy Sodiqjonovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida nomutaxassislik yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish.....	96
<i>Koshayeva Sansabila Kamiljanovna</i>	
Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishda xalqaro tajribalar va ta'lim jarayonining o'rni.....	100
<i>Mamajonova Fotimaxon O'ktamovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati	105
<i>Murodova Madina Karim qizi</i>	
Elektrotexnika va elektronika fanini o'qitishning zamonaviy metodlari	108
<i>Ortiqov Mironshoh Sodiqovich</i>	



Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda Blended learning texnologiyasini O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga tatbiq etish.....	110
Pakirdinova Sharofat Abdumutaljonovna	
O'zbekistonda ta'lim sohasi bo'yicha strategik dasturlarni ishlab chiqish istiqbollari.....	115
Quronboyeva Mavluda Bahodirovna	
Xalqaro baholash dasturlari va neyropedagogika	120
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
6-sinf o'quvchilarida matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi	123
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi	
Talabalarda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati	128
Yusupov Ulug'bek Kadirovich	
Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchi ma'naviy kamolotini ta'minlashda motivatsiya uyg'otish texnologiyalarini takomillashtirish	132
F. Zaynabuddinov	
Развитие поликультурной компетентности студентов в образовательной среде вуза	135
Киреева Эльвина Фларитовна	
Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik xususiyatlar	140
Sanayev Gayrat Shermuxamedovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalar muloqot madaniyatini tarbiyalashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	144
Boybo'riyeva Saodat O'ralovna	
Kattalar ta'limi texnologiyasi: muammolar, yondashuvlar va rivojlanish yo'nalishlari	148
Davletova A.	
Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirishning huquqiy asoslari	152
G'aniyeva Gulrux Tavakkaljon qizi	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish	156
Madmarova Gulchexra Qodirovna	
O'lkashunoslik materiallarining oliy ta'lim jarayonida tarbiyaviy salohiyatini ochib berish	160
Mamajonov Mo'minjon	
Muhandislik grafikasi darslarida o'quv faoliyatining shaxsga yo'naltirilgan innovatsion modeli	165
Mamasidikova Gulnora Muhammad qizi	
Sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy resurslarning pedagogik imkoniyatlari.....	169
Muhiddinov Muhiddin Nuriddin o'g'li	
Ijod maktablari o'quvchilarining badiiy-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati.....	173
Nurmatova Shohistaxon Muhammadjonovna	
Voleybolchi qizlarni tayyorlashning differensial vositalaridan foydalanish zarurligini, ularning o'yin amplusini hisobga olgan holda aniqlash usullari	178
Odilova Feruzaxon Valijon qizi	
PIRLS baholash tizimini qo'llash vositasida mustaqil o'qishga o'rgatishda IMEN texnologiyalaridan foydalanish.....	184
Olimjonova O'g'ilxon Abdurasul qizi	
Yoshlar o'rtasida internet qaramligi va ijtimoiy izolyatsiya zamonaviy Maugli sindromining klinik ko'rinishlari	188
Polvanov Rasulbek Baxtiyarovich	
Boshlang'ich maktabda o'zbek tili darslarida differensial ta'limdan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari	192
Rasulova Nozigul Abdivahid qizi	
Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini takomillashtirish	196
Sharfova Nilufar Ilhom qizi	
Xalqaro baholash dasturlari asosida ta'lim samaradorligini oshirishning pedagogik shart-sharoitlari (PIRLS misolida).....	200
Tuxtasinova Munira Ibragimovna	
Fransuz tili darslarida tabiatshunoslik atamalarini boshlang'ich sinflarda shakllantirish va o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari.....	204
Umarova Madinabonu Bahodir qizi	

O'smir psixologik salomatligini barqarorlashtirishda art-terapiyadan foydalanishning imkoniyatlari	208
<i>Yusupxodjayeva Umida Baxodir qizi</i>	
Nofillologlarni (filolog bo'lmaganlarni) kasbiy aloqa madaniyatiga o'rgatish maqsadida zamonaviy ingliz tilining lingvometodik tahlili.....	214
<i>Zarina Itolmasova</i>	
Forsayt va qaror qabul qilishni bog'lovchi kognitiv komponentlar.....	219
<i>Hasanova Sumanbar Hamroqulovna</i>	
Разработка и внедрение виртуальных лабораторных работ по биохимии для студентов фармацевтических факультетов.....	222
<i>Мамадалиева Зарина</i>	
Abduqodir Shakuriyning ta'lim va tarbiya haqidagi umumiy qarash va g'oyalari: chuqur tahlil	226
<i>Ashurova Dilrabo Isroil qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish tizimi ..	230
<i>Jakbarova Zarifaxon Solijon qizi</i>	
Badiiy-estetik qobiliyat tuzilmasi va uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar	233
<i>G. S. Kaxarova</i>	
Umumta'lim maktablarida informatika o'qitish asosida ta'limni raqamlashtirishning metodologik asoslari...	236
<i>Mamajanov Rakhmatilla Yakubjanovich</i>	
Shaxsda ma'naviy intellektni rivojlanishiga qadriyatlar yo'nalganligining ta'siri.....	240
<i>Mirxoliqova Charos Xabibullayevna</i>	
O'qituvchilarning sun'iy intellekt bo'yicha kompetentligini rivojlantirishda metodik yondashuv	244
<i>Najmetdinova Nargiza Sayfetdinovna</i>	
Ismlarning ma'noliligi va ularni o'qitishda lingvopedagogik yondashuvlar	252
<i>Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich</i>	
Fitnes-aerobika mashqlaridan foydalangan holda sog'lomlashtirish mashg'ulotlari uslubiyati.....	258
<i>Shaxriddinova Laylo Nurxonovna</i>	
Raqamli ta'lim texnologiyalarining didaktik va "learning analytics"ning nazariy asoslari	262
<i>Sulaymanov Zulqaynar Rajabali o'g'li</i>	
Esse yozishni o'rgatishda zamonaviy metodlar.....	268
<i>Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi</i>	
Iqtisodiy matnlar tarjimasini o'rgatishda raqamli simulyatsiya va virtual reallik (VR) texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari.....	272
<i>Xujanazarova Nozima Omonjonovna</i>	
Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ilmiy metodologik asoslari	275
<i>Axmedov Nodir Sadir o'g'li</i>	
Talaba-yoshlarda qo'shiq ijrochilik san'atini shakllantirishning zamonaviy pedagogik xususiyatlari: ta'lim islohotlari kontekstida yondashuv.....	279
<i>Begisbay Temirbayev</i>	
Xorijiy davlatlarda biologiya o'qituvchilarini tayyorlash tajribasi va uni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari.....	283
<i>Hayitov Abdirasul Eshdavlatovich</i>	
Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalariga umumiy fizika kursini o'qitishda virtual laboratoriyalarning ahamiyati.....	286
<i>Abdurakibov Akmal Abdugaparovich</i>	
Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining gapirish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda yangi – "instruksional texnologiya" va sun'iy intellektga tayanib o'qitish metodologiyasi.....	290
<i>Abrorxo'ja Muminxo'jayev Muksumxodjayevich</i>	
Jaloliddin Rumiy fikrlarining hozirgi yoshlarga ta'siri	296
<i>Allayarov Doniyor Islom o'g'li</i>	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.....	298
<i>Aygul Aralbayevna Urazimbetova</i>	
Sud psixologik ekspertizasida travmatik tajriba (PTSD) fonida emotsional reaksiya va ko'rsatma sifati o'rtasidagi bog'liqlik.....	301
<i>Dehqonboyev Shohjahon Oybek o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'limda 4 "K" kompetensiyalarini rivojlantirishdagi muhim dolzarbliklar	307
<i>Idiyeva Gulchehra Izomovna</i>	



Bikaryer oilalarda gender rollar integratsiyasi jarayonidagi psixologik omillar.....	311
<i>Ishboboyeva Gulbarchin Rustam qizi</i>	
Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishda sun'iy intellekt texnologiyalarida foydalanish muammolari va yechimlari.....	315
<i>Karshiyeva Dilnoza Utkirjonovna</i>	
Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning metakognitiv ko'nikmalarini shakllantirishda reflektiv yondashuv	319
<i>Laylo Baxtiyor qizi Axmedova</i>	
1939-1945-yillarda O'zbekiston hududida qishloq xo'jaligidagi paxtachilik va oziq-ovqat muammolari	323
<i>Mutallibjonov Boburmirzo Muzaffarovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalari talabalarining tajriba oxiri jismoniy tayyorgarligi darajasi dinamikasi	328
<i>Samadov Sardor Sodiqovich</i>	
O'zbekiston umumta'lim maktablarida mazmun va til integratsiyalashgan o'qitish (CLIL) yondashuvining pedagogik va amaliy imkoniyatlari.....	335
<i>Tursunaliyeva Muattar Alisher qizi</i>	
O'rta maktab 11-sinf o'quvchilarining lug'at boyligini oshirishda turli metodlarning o'rni	340
<i>Xamzayeva Ruxshona Abdusamadovna</i>	
Umumta'lim maktablardagi ingliz tili o'quv darsliklari tahlili	344
<i>Xiloldinova Zulayho</i>	
Ingliz klassik adabiyoti orqali talabalar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishning innovatsion yondashuvlari.....	348
<i>Ziyotov Farruh Saodilla o'g'li</i>	

INGLIZ KLASSIK ADABIYOTI ORQALI TALABALAR MA'NAVIY-AXLOQIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Ziyotov Farruh Saodilla o'g'li

Qarshi davlat universiteti 1-bosqich doktoranti

Annotatsiya: Maqolada ingliz klassik adabiyoti namunalari orqali talabalar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirish masalasi yoritilgan. Shekspir, Dikens va Jeyn Osten asarlari misolida halollik, adolat, mehr-oqibat kabi fazilatlarni rivojlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, innovatsion metodlar asosida bu jarayonni samarali tashkil etish yo'llari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ingliz adabiyoti, ma'naviy tarbiya, axloqiy qadriyatlar, talabalar, Shekspir, Dikens.

Abstract: This article explores the development of students' moral and ethical worldview through classic English literature. Using examples from the works of Shakespeare, Dickens, and Jane Austen, it analyzes the potential for fostering values such as honesty, justice, and empathy. The paper also discusses effective methods for implementing this process through innovative teaching approaches.

Key words: English literature, moral education, ethical values, students, Shakespeare, Dickens.

Аннотация: В статье рассматривается вопрос формирования духовно-нравственного мировоззрения студентов через произведения английской классической литературы. На примерах произведений Шекспира, Дикенса и Джейн Остин анализируются возможности воспитания таких качеств, как честность, справедливость и сочувствие. Также рассматриваются эффективные пути реализации этого процесса с использованием инновационных методов.

Ключевые слова: английская литература, духовное воспитание, нравственные ценности, студенты, Шекспир, Диккенс.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida insoniyat taraqqiyotining turli jabhalari jadallik bilan rivojlanayotgan bir vaqtda, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar orasida insoniylik, halollik, vatanparvarlik, mehr-oqibat kabi umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish zarurati kun sayin ortib bormoqda. Bu jarayonda ta'lim-tarbiyaning eng samarali vositalaridan biri – adabiyotdir. Chunki adabiyot inson qalbiga ta'sir qiladigan, unga ruhiy ozuqa beradigan, axloqiy-ruhiy olamni boyitadigan kuchli manbadir. Ayniqsa, ingliz klassik adabiyoti asarlarida insoniy fazilatlar, axloqiy ideallar, jamiyatdagi muammolar va ularning yechimi chuqur tasvirlangan bo'lib, bu asarlar orqali talabalar nafaqat til o'rganadilar, balki hayot haqidagi tushunchalarini, ichki dunyosini ham boyitadilar. Shu jihatdan, ingliz klassik adabiyotini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'rgatish orqali talabalar ongida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish, ularda hayotga to'g'ri qarash, adolatli qaror qabul qilish, insoniy munosabatlarni anglashga yordam berish mumkin. Mazkur maqolada ingliz klassik adabiyotining ayrim yorqin namunalari misolida ma'naviy-axloqiy ideallarni shakllantirish imkoniyatlari hamda bu borada qo'llaniladigan samarali texnologiyalar yoritib beriladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ingliz klassik adabiyoti o'zining mazmun va g'oyaviy boyligi, til o'ziga xosligi hamda badiiy shakllantirish mahorati bilan ajralib turadi. Bu adabiyotda sadoqat, halollik, fidoyilik, adolat, muhabbat, ezgulik, bag'rikenglik kabi abadiy qadriyatlar chuqur ifoda etilgan. Masalan, Charlz Dikkinsning "Oliver Tvist" romanida qahramonning og'ir hayoti, jamiyatdagi adolatsizlik, boy va kambag'al tabaqalar o'rtasidagi tafovutlar ochib beriladi. Bu asarda bosh qahramon Oliver – beg'uborlik, sabr-toqat, halollik va mehr-oqibat timsoli sifatida tasvirlanadi. Talabalar bu asarni o'rganar ekanlar, ijtimoiy tengsizlik, inson huquqlari, bolalar taqdiri kabi dolzarb muammolarni tushunib, jamiyatga befarq bo'lmaslik g'oyasi bilan tanishadilar. Ularning fikrlash doirasi kengayadi, empatiyasi kuchayadi, atrofdagilarga nisbatan e'tiborliroq bo'la boshlaydilar.

Xuddi shuningdek, Uilyam Shekspirning "Hamlet", "Otello", "Makbet" kabi asarlarida inson ruhiyatining murakkab jihatlari, halollik va xiyonat, sadoqat va xusumat, muhabbat va nafrat kabi qarama-qarshi tushunchalar o'z aksini topgan. "Hamlet"dagi "bo'lish yoki bo'lmaslik" degan mashhur ibora aslida hayotiy tanlovlar, insoniy mas'uliyat haqida chuqur o'yga chorlaydi. Talabalar ushbu asarni o'rganib, hayotda yuz beradigan murakkab qarorlar, axloqiy jihatdan to'g'ri yo'l tanlash zarurati haqida fikr yuritadilar. Bunday jarayonlar esa ularni mustaqil fikrlashga, voqealarga tanqidiy yondashishga, jamiyatdagi holatlarni anglab yetishga o'rgatadi.

Jeyn Ostenning "G'urur va xurofot" asarida esa oila, sevgi, ijtimoiy mavqe, insoniy munosabatlar atrofida yuradigan voqealar orqali yoshlar hayotga nisbatan realistlik, ammo axloqiy mezonlarga asoslangan munosabatni shakllantiradilar. Asarda qahramonlarning xatolari, kechirimlilik, kamtarlik kabi fazilatlar orqali saboq olinadi. Bu esa talabalarni o'z harakatlariga javobgarlik bilan yondashishga, har qanday holatda ham odob va madaniyatni saqlashga undaydi.

Adabiyotni o'qitishda o'qituvchining shaxsiy yondashuvi, pedagogik mahorati va innovatsion metodlardan foydalanish qobiliyati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Har bir asar ortida qanday ijtimoiy, tarixiy, axloqiy ma'no yotganini tushuntirish, talabalarni bu masalalar haqida fikr yuritishga undash o'qituvchining asosiy vazifasidir. Adabiyotni boshqa fanlar bilan integratsiyalash orqali (masalan, tarix, falsafa, jamiyatshunoslik) har bir mavzuni yanada chuqurroq tahlil qilish mumkin. Masalan, "Oliver Tvist"dagi ijtimoiy muammolarni Viktoriya davridagi Angliya sharoitida o'rganish, Shekspir asarlaridagi siyosiy voqealarni tarixiy nuqtayi nazardan yoritish orqali talabani umumiy dunyoqarashi shakllanadi. Shuningdek, ijodiy yondashuvni rag'batlantirish – talabalarni mustaqil fikr yuritishga o'rgatadi. Har bir talaba o'qigan asari haqida o'z fikrini incho, video blog, prezentatsiya, multfilm yoki san'at asari orqali ifodalashi mumkin. Bunday topshiriqlar ularning ijtimoiy faolligini oshiradi, ichki dunyosini ochishga yordam beradi, jamiyatdagi dolzarb masalalarga befarq bo'lmaslikka o'rgatadi.

TADQIQOT METADALOGIYASI

Bugungi raqamli asrda ingliz klassik adabiyotini o'qitishda raqamli vositalarning roli tobora oshib bormoqda. Talabalar uchun zamonaviy platformalar, mobil ilovalar, sun'iy intellekt vositalari orqali adabiy matnlarni o'rganish jarayoni nafaqat qulaylik yaratadi, balki o'quv materiallarini shaxsiylashtirish imkonini ham beradi. Masalan, AI asosidagi savol-javob tizimlari orqali talabalar o'zlariga tushunarsiz bo'lgan mazmuniy nuqtalarni mustaqil ravishda aniqlashtirishlari mumkin. Bu esa ularda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, raqamli podkastlar, video bloglar va audio eshittirishlar orqali klassik asarlar muhokamasini olib borish talabalarni zamonaviy kommunikatsiya vositalarida ham o'z fikrini ifodalashga o'rgatadi.

Bundan tashqari, zamonaviy ta'limda muhim o'rin tutadigan "hayotiy kompetensiyalar" – ya'ni muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, mulohaza qilish, jamoaviy ishlash, stressga chidamli bo'lish kabi ko'nikmalarni shakllantirishda ham ingliz klassik adabiyoti samarali manba hisoblanadi. Badiiy asar voqealaridagi ziddiyatli vaziyatlar, murakkab tanlovlar, axloqiy muammolar talabalarni hayotiy qarorlar ustida mulohaza yuritishga undaydi. Masalan, "Makbet" asaridagi hokimiyat uchun kurash jarayoni orqali talabalar hokimiyat, vijdon, oqibat kabi tushunchalar ustida fikr yuritadilar. Bu esa ularni mas'uliyatli va ongli qarorlar qabul qilishga tayyorlaydi.

Yana bir muhim omil – talabalar orasida axloqiy va ma'naviy yetakchilik ko'nikmalarini shakllantirishdir. Adabiy obrazlar orqali ular liderlik, mas'uliyat, halollik, insonparvarlik kabi fazilatlarini o'zlashtiradilar. Bunday fazilatlar esa nafaqat individual rivojlanish, balki jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini egallash uchun ham muhim hisoblanadi. Adabiyotni o'rganish jarayonida talabalarni jamoat tadbirlariga, debat klubiga, ijtimoiy loyihalarga jalb qilish orqali bu fazilatlar yanada mustahkamlanadi.

Shu bilan birga, ingliz klassik adabiyotini o'rganish jarayonida madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish ham katta ahamiyat kasb etadi. Klassik asarlar, ayniqsa, Britaniya madaniyatiga oid tarixiy, siyosiy va ijtimoiy kontekstni o'zida mujassam etgani bois, talabalar bu asarlar orqali boshqa xalqlarning urf-odatlarini, qadriyatlarini va turmush tarziga nisbatan hurmat, bag'rikenglik kabi fazilatlarini egallashadi. Masalan, Jeyn Osten

asarlarida XVIII–XIX asr ingliz jamiyati hayoti, ayollarning ijtimoiy mavqei va oilaviy qadriyatlar kabi masalalar realistik tarzda aks ettirilgan. Talabalar bu asarlarni o'rganar ekan, o'z jamiyatidagi qadriyatlar bilan taqqoslash imkoniga ega bo'ladilar, bu esa ularda madaniy tafakkur va ochiq qarash shakllanishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ingliz klassik adabiyotining tahliliga psixologik yondashuvni qo'llash orqali talabalar inson ichki dunyosini, ruhiy holatlarini chuqur anglashga harakat qiladilar. Shekspirning qahramonlari, ayniqsa Hamlet yoki Otello kabi murakkab shaxslar, inson ongi, ichki ziddiyatlar va psixologik iztiroblarni tahlil qilishda boy material beradi. Bunday asarlar asosida talabalarga psixologik portretlar tuzish, xarakter tahlilini yozish, qahramonlarning ruhiy kechinmalarini ifodalovchi dramatik monologlar yaratish topshiriqlari berilishi mumkin. Bu faoliyatlar ularda psixologik sezuvchanlik, insonparvarlik va empatiya fazilatlarini kuchaytiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda ekologik ong, ijtimoiy adolat, gender tengligi, ruhiy salomatlik kabi global muammolar yoshlar o'rtasida tobora dolzarb tus olmoqda. Ingliz klassik adabiyotida bu masalalarga bevosita yoki bilvosita murojaat qilingan hollari ko'plab uchraydi. Masalan, Charlz Dikkensning asarlarida sanoat inqilobi davrida kambag'allar hayoti, atrof-muhit ifloslanishi, bolalar mehnatining ekspluatatsiyasi tasvirlangan bo'lib, bu sahnalar hozirgi ekologik va ijtimoiy muammolar bilan uzviy bog'liq. Shu asosda talabalarga muayyan adabiy parchalardan ilhomlanib, bugungi kunga oid ijtimoiy loyihalar, targ'ibot kampaniyalari yoki ijtimoiy reklama g'oyalari ishlab chiqish vazifasi topshirilishi mumkin. Bu esa ularni nafaqat kitob o'qishga, balki ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga ham undaydi.

Yana bir zamonaviy pedagogik yondashuv sifatida loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning – PBL) metodikasidan foydalanish mumkin. Ushbu metod orqali talabalarga biror adabiy asar asosida mustaqil loyiha yaratish topshiriladi. Bu loyiha vizual prezentatsiya, sahna ko'rinishi, veb-sahifa, blog, YouTube uchun kontent, ijtimoiy kampaniya shaklida bo'lishi mumkin. Masalan, "G'urur va xurofot" asarini zamonaviy real hayot kontekstida qayta talqin qilish, yoki "Hamlet"dagi axloqiy muammolar asosida psixologik vlog yaratish orqali talabalar nafaqat asarni o'zlashtiradilar, balki uni zamonaviy hayot bilan bog'laydilar. Bunday ijodiy yondashuvlar esa talabalarni innovatsion fikrlashga, tashabbuskorlikka va murakkab muammolarni mustaqil hal qilishga o'rgatadi.

Bundan tashqari, ingliz klassik adabiyotidan foydalanib talabalar o'rtasida ijtimoiy so'rovlar, mini-tadqiqotlar o'tkazish amaliyoti ham samarali natijalar beradi. Masalan, "Jamiyatda halollik va adolat muhimmi?" yoki "Oila va muhabbat bugungi yoshlar uchun qanday qadriyat?" kabi savollar asosida talabalardan fikrlar yig'ish, so'rov natijalarini grafiklar va statistik tahlil ko'rinishida taqdim etish orqali ular faqat adabiy jihatdan emas, balki tadqiqotchi sifatida ham rivojlanadilar. Bu esa talabalarni ilmiy-ijodiy faoliyatga tayyorlaydi, akademik yozuv malakasini oshiradi va tanqidiy fikrlash darajasini mustahkamlaydi.

Shuningdek, adabiy matnlar asosida ijtimoiy teatr yoki "forum-teatr" shaklidagi mashg'ulotlar o'tkazish ham ta'sirchan vositalardan biridir. Talabalar Shekspir yoki Dikkens asarlari asosida kichik sahnalarni jonlantirish orqali nafaqat asar mazmunini chuqurroq anglaydilar, balki tomoshabinlar bilan interaktiv muloqotga kirishib, muhokama va bahs-munozaralar orqali o'z fikrlarini himoya qilishga o'rganadilar. Bunday faoliyatlar talabalarning nutq madaniyatini, ijtimoiy faolligini va ijodiy tafakkurini rivojlantiradi.

Bundan tashqari, ingliz klassik adabiyotining talabalar ma'naviy olamiga ta'siri nafaqat obrazlar yoki g'oyalarda, balki madaniy tafakkurni shakllantirishdagi o'rnida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Adabiyot orqali boshqa millat vakillarining hayot tarzi, ijtimoiy qadriyatlari, tarixiy taraqqiyoti va madaniy urf-odatlar bilan tanishish talabalar ongida keng dunyoqarashni shakllantiradi. Bu esa yoshlarni ko'proq bag'rikenglik, hurmat, va madaniyatlararo muloqot tamoyillariga asoslangan holda ijtimoiylashishga undaydi. Ular o'z madaniyatlarini chetdan turib baholashga, tahlil qilishga va eng muhimi, qadrlashga o'rganadilar.

Yana bir muhim jihat – ingliz klassik adabiyoti orqali shakllanadigan axloqiy hushyorlik va axloqiy sezuvchanlikdir. Talaba kundalik hayotda duch kelayotgan turli ijtimoiy jarayonlar, ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib qilinayotgan g'oyalar, reklamalar, ommaviy axborot vositalarining ta'sirini filtrlashda kuchli ichki mezon – ya'ni axloqiy kompasga ega bo'lishi zarur. Bunday ichki mezon aynan badiiy asarlarni chuqur tahlil qilish orqali shakllanadi. Adabiy matnlarni faqat o'qish emas, balki ulardan hayotiy saboq chiqarish orqali talaba o'z fikrini shakllantiradi va har bir voqeani ichki axloqiy nuqtai nazardan baholay boshlaydi.

Shuningdek, ingliz klassik adabiyoti talabani axloqiy rang-baranglikni qabul qilishga o'rgatadi. Bu asarlar orqali yoshlar faqat oq yoki qora deb bo'linmaydigan, hayotda ko'plab noaniqliklar, murakkab tanlovlar borligini anglaydilar. Bu esa ularning qaror qabul qilish qobiliyatini mustahkamlab, hayotga realistik yondashuvni shakllantiradi. Ayniqsa, hozirgi tez o'zgaruvchan jamiyatda yoshlarning qat'iy hayotiy pozitsiyaga ega bo'lishi uchun, ular hayotdagi ziddiyatli holatlar, qarama-qarshi g'oyalar, ichki kurashlar bilan tanish bo'lishi kerak – bular esa adabiyot orqali yumshoq, ammo samarali tarzda yetkaziladi.



Yana bir jihat – adabiyotni chuqur o'rganish orqali shakllanadigan xatolardan saboq olish qobiliyatidir. Talabalar asardagi xatolar, tanlovlar, oqibatlar orqali o'z hayotida shu kabi xatolardan qochish imkonini ko'radilar. Bu ularning shaxsiy tajriba doirasini kengaytiradi. O'z boshidan o'tkazmasdan ham saboq chiqarish bu – aql va qalbning o'rganishga ochiqligidan dalolat beradi. Adabiyot esa bu qobiliyatni shakllantiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ingliz klassik adabiyotini o'rganish jarayonida talabalar o'zlarining etika va estetikaga bo'lgan munosabatini qayta ko'rib chiqadilar. Asardagi tilning nafisligi, tasvirlarning nozikligi, obrazlarning hayotiyliги ularni so'z, munosabat, xatti-harakatdagi go'zallikni qadrlashga o'rgatadi. Bu esa bevosita ularning kommunikatsion madaniyatida, jamoat joyidagi xulq-atvorida, jamiyat bilan muloqotida ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Inson o'z atrofidaгilar bilan faqat fikr emas, axloqiy-estetik energiya ham almashadi. Adabiyot bu energiyani yuksak darajada yetkazishga xizmat qiladi.

Shuningdek, klassik adabiyot orqali talabada hayotiy barqarorlik tushunchasi shakllanadi. Hayotda yuz berishi mumkin bo'lgan sinovlar, og'riqlar, ijtimoiy adolatsizliklar, yolg'izlik, ruhiy tushkunlik kabi holatlarni adabiyotda o'rganish, ularni o'zicha talqin qilish va ular bilan yashashni o'rganish talabaning psixologik muvozanatini saqlashga yordam beradi. Chunki badiiy matn – bu o'ziga xos terapevtik vosita bo'lib, o'quvchini ruhiy jihatdan tozalaydi, tushunishga, kechirishga, bardoshli bo'lishga o'rgatadi.

Ingliz klassik adabiyoti nafaqat tilni o'rgatish, balki talabalarni ma'naviy va axloqiy jihatdan yuksaltirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Darslarda bunday adabiy asarlarni zamonaviy metodlar bilan tahlil qilish, ular orqali axloqiy g'oyalarga e'tibor qaratish, talabalarni fikr bildirishga undash, ularni ijtimoiy mas'uliyatga o'rgatish bugungi ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim. Ingliz klassik asarlaridagi teran fikrlar, axloqiy saboqlar bugungi yoshlar uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zero, har bir xalqning kelajagi uning ma'naviy barkamol, axloqiy jihatdan yuksak yoshlari qo'lida.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Шекспир У. Гамлет. – Тошкент: "Yozuvchi", 1991.
2. Диккенс Ч. Оливер Твист. – Тошкент: "O'zbekiston", 2003.
3. Остен Дж. Гордость и предубеждение. – Москва: Эксмо, 2017.
4. Абдуллаева Н. Таълим жараёнида адабиёт орқали маънавий тарбия. – Тошкент: TDPU, 2020.
5. Lazar G. Literature and Language Teaching: A Guide for Teachers and Trainers. – Cambridge: Cambridge University Press, 1993.
6. Обломуродов А. Инновацион педагогика. – Тошкент: "Fan va texnologiya", 2019.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.